

O'zbekiston Respublikasi

Ona yurting - oltin beshiging

TONG Yulduzii

№36 (66369)

2002 yil

2 sentabr,

dushanba

Sotuvda

erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.



Yangi o'quv yilini ham
boshlab yubordik. Yangi
ta'mirdan chiqqan qadrdon
maktabimiz,
shinamgina

99 yilligiga, «Avesto»ning 2700 yilligiga
bag'ishlangan konferensiyanimiz,
«Tomchi suvda hayot jilvasi» deb

nomlangan tanlovimiz, «Tabiatni
asraylik!» nomli shanbaligimiz juda
samarali, qiziqarli o'tgandi. Maktabimiz

kutubxonasi «Eng yaxshi
kutubxona» ko'rik-
tanlovida tumanda

Mustaqillik darsi

sinfxonalarimiz, mehribon
ustozlarimiz bizni quchoq ochib
kutib olishdi. Maktabimni juda sog'inib
qolgan ekanman, sinfxonalarni, sport
maydonchasini, oshxonamizni birma-bir
aylanib chiqdim.

-Maktabimizni taniyapsanmi, ishqilib?
dedilar menga hamroh bo'lgan
ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha
direktor o'rinnbosari Farida opa
Atametova. - Kelishingizga hamma
narsani taxt qilib qo'yidik.

- Farida opa, o'tgan o'quv yilida juda
ko'plab ibratlari ishlari, tadbirlarni amalga
oshirgandik. Bu yil ham o'sha
ishlarimizni davom ettiramizmi? Yana
qanday ishlarni amalga oshiramiz, shular
haqida gapirib bering,-deya suhbatga
tortdim ustozimni.

- Xabaring bor, maktabimiz «Kamolot»
Yoshlar Ijtimoiy Harakatining faol
a'zolaridan biri. Barcha ishlarni reja
asosida olib boramiz. Masalan, har
dushanbada «Siyosiy-huquqiy»,
seshanbada «Ma'naviy-ma'rifiy»,
chorshanbada «Ijtimoiy-iqtisodiy»,
payshanbada «Jismoniy tarbiya, sport
va madaniy xordiqni rejalshtirish»,
jumada «Xalqaro faoliyat» va nihoyat
shanbada «Ekologiya madaniyati va
sanitariya holatini yaxshilash» sohalari
bo'yicha ish yuritiladi.

Yodingda bo'lsa kerak, buyuk
mutafakkir A.Navoiy tavalludining 561
yilligiga, sevimli shoirimiz G.G'ulomning



MUSTAQILLIK

Mustaqillik kamolim manim,
Oydan oydin jamolim manim.
Hur va ozod, erkin Vatanda
Oftob kabi iqbolim manim.

Mustaqillik — dilim g'ururi,
Tuyg'ularim o'tli sururi.
Bu olamda tengi yo'q quvonch,
Mustaqillik — ko'zlarim nuri.

Yo'llarimdir porloq va ravon,
Bolaligim baxtli, farovon.
Ota-onam bag'rida yayrab,
Ulg'ayaman shodon, bearmon.

Dildora MUHIDDIN qizi,
Toshkent shahar, S.Rahimov
tumanidagi 298 - maktabning
3 - «B» sinf o'quvchisi.

birinchi, shaharda
uchinchi o'rinni, mehnat
uslubiyoti birlashmasi «Eng yaxshi
mehnat xonasi» ko'rik-tanlovida tuman,
shahar miqyosida birinchi o'rinni
olganida hammamizning quvonganimizni
eslaysanmi? Dilshod G'ofurov, Saodat
Ibragimova, Dilafruz Usmonova singari
iqtidorli o'quvchilarimizning «Xuvaydo»
mahalla qo'mitasi tomonidan eng a'lochi
o'quvchilar deb topilishi, 10 - «A» sinf
o'quvchisi Azizbek Shokirovga va senga
mahallaning maxsus stipendiyasining
berilishi ham juda quvonchli hol
bo'lgandi-da. Nasib bo'lsa, bu o'quv
yilida ham ana shu ibratlari ishlarmizni
davom ettirish niyatidamiz. Bu esa
nafaqat biz — ustozlarga, balki siz —
o'quvchilarga ham bog'liq. Yangi o'quv
yilida maktabimizning sen kabi eng faol,
a'lochi, jamoatchi, iqtidorli o'quvchilar
bilan ijodiy kecha o'tkazishni
rejalashtiryapman. Bunday uchrashuvlar
boshqa o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir
qiladi, ularni yanada yaxshiroq o'qishga,
izlanishga ruhlantiradi, degan
umiddaman...

Farida opaga kelgusi ishlarida ulkan
muvaqqafiyatlar tilab, maktabimdan
uzoqlashar ekanman, u menga: «Sizlar
qaytib, bag'rim yana to'lib qoldi»
deyayotgandek tuyuldi.

Mahmudjon AZIMOV,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 169 - maktabning
6 - sinf o'quvchisi.



TA'MIRDAN CHIQQAN MAKTAB

Maktab hovlisiga kirdimu, bo'yoqlarning isi dimog'imga urildi. To'liq ta'mirlangan maktab



o'quvchilarga o'z bag'rini ochib turibdi. Shayxontohur tumanida joylashgan Fattox Nazarov nomidagi 23- bolalar musiqiy maktabi o'zining faol o'quvchilari bilan mushtariylarga ma'lum. Diyorbek Mahkamov, «Nastarin» guruhlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar oynai jahonda ko'p marotaba yangragan...

Xo'jalik ishlari mudiri Damira opa Shakirova boshchiligidan har bir sinfni birma-bir aylanib chiqdik. Musiqa cholq'u asboblari bilan jihozlangan sinflar yorug', shinamgina.

-Eng so'nggi marta maktab 1993 yili kapital ta'mirdan chiqqan edi,- dedilar Damira opa,- qariyb o'n yillik tanaffusdan keyingi ta'mir maktabga yangicha uslub, yangicha ko'rinish berdi. Bir oy mobaynida shiddatli olib borilgan ishlarning samarası bu. Suvoqchi-bo'yoqchi ukalarimiz ham ishni yangi o'quv yiligacha tugatganlariga benihoya xursand. Ular bilan tanishtiray:

Zafar Daminov va To'lqin Omonovlar Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidan. Dilmurod Almatov Toshkentning Sobir Rahimov tumanidan. Ular esa gul qog'oz ustalari Mustafa Chabanov va Server Zakeryayev.

-Bilasizmi, 1 avgustdan ish boshladigu yangi o'quv yiliga ulgurolmay qolamizmi, deb qo'rqdik,- deyishdi ustalar, -besh kishidan iborat


jamoaga bu sal ko'plik qiladi-da. Shuning uchun ham maktabdan uyga ketmay, shu yerda yotib ishladik. Sahar soat 6 dan boshlangan ishimiz kechasi soat 2 larda tugaydi. Barvaqt ish barakali bo'lsa, kechki paytda charchog'ingiz bilinmaydi. Oziq-ovqatlarimizdan Nodira opa xabar olib turdilar. O'zlarini kuydirib-pishirdilar. Nafaqat 20 ta sinfxona, balki yo'laklar, majlislar xonasi, o'qituvchi va direktor xonalari, tashqi devorlar - barchasi o'ziga xos rangga bo'yaldi.

DUO CHARCHOG'IMNI UCHIRIB YUBORADI

-Qiziq, aynan maktablar ta'miri bilan shug'ullanadigan firma ham bor ekan-da?

-Albatta,-deyidilar «Nidi» firmasi boshlig'i Nodira opa Hamroyeva,- firmamiz shahar hokimiyyati madaniyat ishlari bo'limi bilan ishlaydi. Ta'mirtalab maktablarga hokimiyyat mablag' ajratadi. Bizning qo'limizdan chiqqan maktablar soni ham anchagina. Mirzo Ulug'bek tumanda joylashgan 20-musiqiy maktabning santexnikasini to'liq yangiladik,

o'sha tumandagi 2-maktab, Feruz a madaniyat uyi, Yakkasaroy tumanidagi Xurshid madaniyat uyi, Ibn Sino mavzesida joylashgan Ibn Sino madaniyat uyi to'liq ta'mirlandi. Bizda 15 nafar ishchilar ishlaydi. Ko'rib turganingizdek, ular turli



viloyatlardan. Ish qidirib poytaxtga kelgan, ishi puxta, bizning maoshimizga ko'ngli to'ladiganlarni saralab ishga olganman. Bizda oylik doimo o'z vaqtida beriladi. Ba'zi bir shirkatlardagiga nisbatan ko'proq. Bilasizmi, inson avvalo fidoyi bo'lmog'i darkor. Axir bilim maskani haqida o'yamasak bo'lmaydi. Men o'zimni chetga olsam, boshqasi qarab tursa bu maktablar nurab yo'q bo'lib ketishi mumkinku. Men farzandlarim, yurtim qorako'zlarini tahsil oladigan maktablar qulay, chiroqli va shinam bo'lishini istayman. Shuning uchun ham yeng shimarib, shunday firma ochishga, beminnat xizmat qilishga bel bog'laganman. Mehnatim evaziga tashakkurlar, duolar eshitaman. Shunda hamma charchog'larim uchib ketadi. Bolalar xursandchiligi menga kuch bag'ishlayveradi.

NASTARINNING ISI


-Maktabimiz 1970 yil Abdullayev Yuriy Borisovich tashabbuslari bilan ochilgan. Ular maktabga 30 yil rahbarlik qildilar. Biz ularni Yo'lchi aka derdik. Yaqinda bandalik qildilar (xudo rahmatiga olsin),- deb maktab bilan tanishtira ketdilar rahbar Muhiddinov Olim Ibragimovich,- bizda 320 nafar o'quvchi tahsil oladi. Fortopiano, skripka, bayanoakkardion, o'zbek xalq asboblari - puflama asboblar, torli asboblar, doira mutaxassisliklari bo'yicha dars o'tiladi. Yana muzika teoriyasini darsi - salfedji, xor dastasi, estrada yo'nali shidagi «Nastarin» guruhi mavjud.

Men maktabimiz shahnni ko'tarayotgan, yoshlarning sevimli guruhi «Nastarin» haqida alohida

to'xtalmoqchiman.

Nastarin gulining go'zalligini barcha bilsa kerak. Shu sababdan ham biz bu guruhni «Nastarin» deb nomlaganmiz. Uning tashkil etilganiga bir yarim yil bo'ldi. Qo'shiqlarimiz ham rang-barang. Bastakorlardan Asad Ubaydullayev, Komil Latipov, Farhod Sadivoqqosov shoir Ibrohim Jiy'anov she'r lariga go'zal, o'ynoqi, bolacha musiqalar bastalab berishadi. «Yangi avlod» studiyasi Yoshlar kanali, «Do, mi, sol» ko'rsatuvi Xalqaro kanali, «Besh barmoq» ko'rsatuvi O'zbekiston birinchi kanali orqali guruhimiz ko'p marotaba o'z dasturlarini taqdim etgan. Shayxontohur tumani hokimiysi madaniyat bo'limi boshlig'i Qodirov Ramziddin Turopovich bizga katta yordam beradi. «Nastarin»ning badiiy rahbari Angelina Li, Mahfuza Islomovalar yosh qizaloqlarga qo'shiq aytish sirlarini, raqsni chiroqli xirom aylashni o'rgatadilar. Asosiy konsert guruhida 14 nafar ishtirokchi bo'lsa, tayyorlov guruhida 20 dan ziyod qizchalar bor. Ular tanlov asosida, iqtidoriga qarab asosiy guruhga o'tishadi.

Undan tashqari filialimiz Shayxontohur tumanida joylashgan 102-nogiron bolalar internati qoshida qulog'i og'ir o'quvchilardan iborat orkestr dastamiz bor. Tibbiyot ham shuni tasdiqladiki, puflama asboblar nogiron bolalarning jismiga ta'sir qilib, uxbab yotgan asab tolalarini ishga solib



yuborarkan. Juziy xastalikni xissiyotni uyg'otish orqali davolarkan. Bu guruh jahon miqyosida mashhur bo'lib ketdi. Elchixonalardan vakillar tashrif buyurishadi, «Bi-bi-si» ko'rsatuvi orqali ko'p marotaba chiqishadi. Ularga imtiyozlar yaratib berilgan. Guruh a'zosi Olya Korolevskaya bilim yurtiga yo'llanma bilan o'qishga kirib, 3-kurs talabasi bo'ldi. Aytmoqchimanki, maktabimiz o'qituvchilari o'sha yerda dars o'tadilar. Ularga ham oson emas, chunki u bolalar eshitib emas, dirijorning qo'liga qarab baravariga chalishlari lozim bo'ladi. Buning uddasidan chiqishyapti ham.

Yutuqlarimizdan yana biri O'zbek xalq bo'limi o'quvchilari Qori Yoqubov nomidagi Respublika ko'rik tanlovida qatnashib, Andijondagi yakunlovchi qismida doirachi o'quvchimiz Elmurod Shohidov birinchi o'ringa ega bo'ldi. Rubobdan 5-sinf o'quvchisi Diyorbek Mahkamovni tanimaydigan yosh bo'lmasa kerak. U ko'proq estrada yo'nalishida kuylab, o'z muxlislariga ega bo'lган.

Undan tashqari, hokimiyat tomonidan uyushtiriladigan «San'at g'unchalari» tanlovlarda muntazam ishtirok etamiz. Bu kabi yutuqlar nafaqat o'quvchilarni, balki biz kattalarni ham ruhlantirib yuboradi. Chunki omonlik va tinchlik bo'lsagina, kuy-qo'shiq ko'ngilga sig'adi. Xotirjamlikni tuygandagina bilim olishga, o'rganishga harakat qiladi bu bolajonlar.

Muharrama
PIRMATOVA.

Prezident asarlarini o'rgananamiz

MILLY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

1980 yillarning oxirlaridan boshlab mamlakatimizga kirib kelgan vahhobiylar, «Hizbut tahrir» kabi zararli oqimlar, turli sektalar dinning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni yo'ldan ozdira boshladi. Ular xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimizning ko'ngli ochiq, soddadil, ishonuvchan, andishali, qalbida kattalarga hurmat, diniy qadriyatlarga intilish tuyg'usi kuchli ekanidan foydalanmoqda.

Shu bilan birga, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada yetarli ish olib bormagani, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolgani, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlar o'z vaqtida ilmiy yechimini topmagani, bu sohada odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishga qurbi yetadigan shaxslar, diniy ulamolarning yetarli emasligi ham bunga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan mafkuraviy tahdidlar quyidagilardan iborat:

— islam xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;

— yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;

— tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;

— axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;

— turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

(Davomi bor.)



XATLAR TEGIRMONI



UMRIMIZNI QADRLAYLIK

Insonga umr bir marta beriladi. U ham ko'z ochib yunguncha o'tib ketadi. Lekin oramizda umrini yana ham qisqartirib, hayotini xafv-xatarga qo'yib yashovchi insonlar ham uchrab turadi. So'z uzog'imizni yaqin qiluvchi avtoulov egalari haqida ekanligini anglagan bo'lsangiz kerak. E'tibor bersangiz, hozirda avtomobilni haddan ziyod tez haydab, turli ko'ngilsiz voqealarga sababchi bo'layotgan yoshlar talaygina...

Sobir ismli bola sizu bizning tengdoshimiz. Otasining qarshiligiga qaramasdan, do'sti Shuhrat bilan mashinaga o'tirib, aylanib kelmoqchi bo'ldi. Musiqani baland ovozda qo'yib, mashinani qushdek uchirib ketishayotgan edi. Shunda qarama-qarshi tomonidan mashina ko'findi. Ular to'xtashga ulgurishmadi. Natijada begona yo'lovchi, Sobir va Shuhrat bir umrga nogiron bo'lib qolishdi...

Afsuski bunday voqealarning tez-tez guvohi bo'lib turibmiz. Meni bir savol o'ylantiradi: Keksalarimiz mashinani tilsiz yov ham deyishadi. Uni hayot uchun xavfli tarzda tez haydash shartmi?

Feruza AHMEDOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent
tumanidagi 7 - maktabning
9 - «A» sinf o'quvchisi.


BOBOJONIMNI BIR KO'RING

Har yili Mustaqillik bayrami arafasida bobojonimni bir ko'rsangiz edi. Kayfiyatları a'lo, shod-hurram bo'lib yuradilar. Men buning sababini bilaman. Bobojonim Sirojiddin ota Maqsudov hayotning achchiq-chuchugini tatigan, yaxshi-yomon kunlarni ko'rgan, suronli urush dahshatlarini boshidan kechirgan insonlardan birilar. Shundanmi, hozirgi faraxbaxsh kunlarimizni juda qadrlaydilar. Nabiralar yig'ilishib qolsak, xotiralaringizdan gapirib bering, deya holi-jonlariga qo'yaymiz. Dastlab o'zlar uchun og'ir bo'lgan xotiralardan so'zlaydilar, qurban bo'lgan safdoshlari, do'starini xotirlab ko'z yosh qiladilar. Keyin esa alam ko'z yoshlari quvonch yoshlariga aylanib ketadi. «Sizlar juda baxtiyor avlodsiz. O'qib-o'rganishingiz, k a s b - h u n a r e g a l l a s h i n g i z , salomatligingizni mustahkamlashingiz, miriqib dam olishingiz uchun imkoniyatlar

bisyor. Sizda ishtiyoyq, havas bo'lsa bas. Shunday ekan, bu kunlarning qadriga yeting. Oltinga teng yoshlik damlaringizni g'animat biling» deya nasihat qiladilar.

Biz ham ularning so'zlariga amal qilamiz. Chunki buva va buvijonlarimiz bizga faqat yaxshilikni ravo ko'rishi da.


Kamola SHIRINOVA,
Toshkentdag 122 - maktabning
7 - «B» sinf o'quvchisi.



GIYOHVANDLIK – ENG YOMON ILLAT

Dugonam Saida bilan qo'shni mahalladan o'tib ketayotgandik, janjallashayotgan ikki o'smir qiz diqqatimizni tortdi. Yon-atrofga parvo qilmay bor ovozlari bilan baqirib-chaqirayotgan bu qizlar nafaqat bizdan, katta yoshdag'i odamlardan ham uyalishmasdi. Janjalning sababini eshitib hamma xayron qoldi. Chindan ham ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan gaplar. Biri:-

Menga nega o'z v a q t i d a bermading, pulini olding-ku,-desa, ikkinchisi:-Nima deb o'ylayapsan, dorilar seningcha arzon turadimi?



Menga bergen o'n minging hech narsa bo'lmaydi, -deb javob berardi. Qizlar uzoq tortishishdi. Bu mashmashadan xabar topgan mahalla oqsoqoli ularning «suhbat»iga yakun yasash uchun militsiya xodimlarini chaqirdi. Ular giyohvand qizlarni olib ketishdi. Endi tegishli chora ko'radilar. Bu voqeadan men ham, dugonam Saida ham o'zimizga tegishli xulosa chiqarib oldik. Mahallamizda, qo'yingchi yurtimizda bu kabi ko'ngilsizliklarning boshqa hech qachon ro'y bermasligini istardim.

Umida AHMADZO'JAYEVA,
Poytaxtimizning
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
18 - maktabning 7 - «D» sinf
o'quvchisi

LAYLAKLARINI

Farg'ona yo'lidan yurganmisiz? Qator simyog'ochlar ustida qo'nib turgan laylaklar inini ko'rghanmisiz? Ko'rmagan bo'lsangiz, biz tomonlarga keling, tabiatmizga nazar soling. Oltiariq bodringlariyu Beshariq qovunlaridan tanovvul qiling. Agar adabiyot va san'at shinavandasini bo'lsangiz, bo'yoq va qalam-qog'ozlaringiz ila keling. Xushmanzara tabiatni tarannum qilgingiz, keng dalalarni laylaklari bilan chizgingiz keladi. Ayniqsa, ingichka simyog'ochlar uchiga ustalik bilan qurilgan inlarga hayron qolasiz. Shamoldan yoki qushlarning uchib-qo'nishidan uya qulab tushmaydimi, deya o'yga tolasiz. Laylaklarning go'zalligini, bolalariga mehribonligini ko'rsangiz edi. Qiziqib qoldingiz-a? Unda, marhamat, Farg'onaga otlaning.

Dildora TURDIYEVA,

Farg'ona viloyati,

Rishton tumanidagi 39-maktabning

8- «A» sinf o'quvchisi.

NURAFSHON SHAHRIM

Mustaqillik bayrami munosabati bilan Buxoroi azim nurafshon shaharga aylandi. Turli rangli chiroqlardan iborat manzaralar aksi kechki Buxoroga o'zgacha shukuh bag'ishlayapti. Hilpirab turgan O'zbekiston bayrog'ini tovlanishiga, shahar ko'chalarida qiyg'os ochilgan gullarga qarab bahri diling ochiladi. Yangi-yangi qurilgan hashamatli binolar shahrimga ko'rk berib turibdi. Shu payt shahar qurilishida, uning gullab yashnashida o'zining katta hissasini qo'shgan quruvchilarini, ishchi-xizmatchilarini eslab o'tishim joiz. Ularning sharofati ila yirik shaharlar zamonaviy tusga, ko'chalar chiroyga kirmoqda. O'z kasbini sevuvchi quruvchilar doimo omon bo'lishsin.

Halovat RAHMONOVA,

Buxoro viloyati,

Buxoro tumanidagi 21-o'rta maktabning

5- «V» sinf o'quvchisi.

O'ZIMGA HISOBOT BERDIM

Yangi o'quv yili boshlandi-yu, «ta'tilni mazmunli o'tkazdimmi, o'qishga tayyormanmi?», - deya o'zimga savol berdim. Ta'tilning birinchi oyida «Besh buloq» oromgohida dam oldim. Matematika to'garagiga qatnashdim. Uyda oyimga uy ishlariga ko'maklashib, jiyanim Asilbekni o'ynatdim. Yangi darsliklarni xarid qilib, ularni o'qidim. Yana lotin yozuvidagi badiiy kitoblarni mutolaa qildim. Menga ayniqsa, gazeta sahifalarida berilayotgan kitobchalar juda yoqadi. Ularni qirqib, kitobcha holida saqlab qo'ydim. Buxoroga qilgan sayohatimizdan bir olam taassurotlar oldim. Eng muhimi, ta'til davomida yangi do'stlar orttirdim.

Bir o'quvchidan ikki maktub

YOSH JAMOATCHI MUXBIRMAN

Ta'tilda quvonchli xabar eshitdim. Viloyatda chop etiladigan «Janub vaqt» gazetasida men haqimda maqola chiqibdi. Unda mening «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining bir yilligiga bag'ishlangan tadbirda qatnashganim va faxrli uchinchi o'rinni egallaganim yozilgandi. Maqola suratlarga boy va qiziqarli edi. Men uni o'qidimu tahririyatga oshiqdim. U yerdagilarga o'z minnatdorchiligidni bildirib, bir dasta she'r, ertak, hikoya va maqolalarimni berib keldim. Meni «Janub vaqt» gazetasining yosh jamoatchi muxbiri qilib tayinlashganidan juda quvondim. Ularning topshiriqlariga binoan maktabimiz, mahallamizdagи yangiliklardan yozib turadigan bo'ldim.

Umida NIYOZOVA,

Surxondaryo viloyati,

Termiz shahridagi 11-maktabning

7- «G» sinf o'quvchisi.

MUCHAL TO'YING

MUBORAK!

Yozgi ta'tilda vaqtimni maqola va she'rlar mashq qilish bilan o'tkazdim. Do'stim Mahmudjon bilan mashq qilgan she'r, maqolalarim haqida fikr almashdik. Do'stim menga ijod borasida ko'pgina maslahatlar berdi. Buning uchun undan behad minnatdorman. Yaqinida Mahmudjoning tug'ilgan kuni. U o'zining muchal to'yini nishonlaydi. Do'stimni sevimli gazetam «Tong yulduzi» orqali tabriklash niyatida quyidagilarni bitdim:

- *Qadrli do'stim Mahmudjon! Seni yaqinlashib kelayotgan muchal to'ying, qolaversa, istiqlolimizning 11 yilligi bilan chin qalbimdan tabriklayman. Ota-onang baxtiga doimo sog'-omon bo'lgin. Sen kabi ijodkor do'stim borligidan faxrlanaman. Quyidagi she'rim muchal to'yingga mendan kichik bir sovg'a bo'ladi, deb o'layman.*

Muborak muchal to'ying,

Hurmat-la oshsin bo'ying.

Sog'-omon bo'lgin har on,


Aziz do'stim Mahmudjon!

Dilshod G'OFUROV,

Toshkent shahar,

Shayxontohur tumanidagi

169 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.





GEOGRAFIK O'RNI VA IQLIMI


Yaponiyaning tabiat manzarasi juda ajoyib va go'zal. Yaponiya Tinch okeanining sharqiy qit'asi qirg'oqlari yaqinida joylashgan 6800 ga yaqin orollardan tashkil topgan bo'lib, ularning umumiyl maydoni 378 ming kvadrat kilometrga tengdir. Mamlakat maydonining 99 foizi asosan eng yirik to'rtta orol - Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollariga to'g'ri keladi. Shimoldan janubga tomon cho'zilgan Yaponiya arxipelagining uzunligi 3000 kilometrn tashkil etadi.

Yaponiya qirg'oqlarini Tinch okeani hamda yapon, sharqiyxitoy va Ov dengizlarining suvlari yuvib turadi.

Yaponlar o'z yurtlarini sevib ardoqlaydilar. Balandligi 3776 metrga yetadigan Fudzi tog'i Yaponianing lirik timsoliga aylangan. Bu davlatning kattagina qismi iliq iqlim sharoitli zonada joylashgan bo'lib, bu yerlarda yilning barcha fasllari o'zgacha tarovatli bo'ladi. Yaponlar tabiatni sevadilar, shuning uchun har bir fasning o'ziga yarasha go'zalligini topa oladilar. Ko'pgina milliy bayramlar va odatlarning ham yil fasllari bilan bog'liqligi bejiz emas.

Orollarda joylashgan bu davlatning hozirgi kundagi shakli doimiy vulqonlarning faolligi hamda yer yuzasiyu qirg'oqlarning ular ta'sirida o'zgarishlari natijasida yuzaga kelgan ekan, Yaponianing manzarasi takrorlanmas go'zalligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatning deyarli uch qismini egallagan viyorli tog'tizmalari orasida vodiylar



joylashgan. Bu tekkisliklarga esa yam-yashil tepaliklaru

umumixalq davlat. Balog'atga yetgan har bir fuqaro umum davlat va viloyat saylovlari ovoz berishga huquqlidir.

Parlament - Yaponiyadagi oliy davlat organi bo'lib, hokimiyatning asosiy uch tarmog'idan birini tashkil qiluvchi yagona qonun chiqaruvchi idora hisoblanadi. U ikki palatadan tashkil topgan: vakillar palatasi va maslahatchilar palatasi. Parlament o'z rezolyutsiyasiga muvofiq deputatlar orasidan bosh Vazirni tayinlaydi. Vazirlar mahkamasi qonunga muvofiq ravishda Bosh Vazir va vazirlardan iborat. Vazirlar mahkamasi davlat hokimiyatining ikkinchi -

AHOLI VA UNING HAYOT TARZI

Yaponlar hayot tarzining eng yuqori darajasiga erishganlar. Yaponiya aholisi 126 mln. ga yaqin kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat dunyoda Rossiyadan keyingi 8-o'rinni egallaydi. Shuni aytish kerakki, Yaponiya dunyodagi aholi zinch joylashgan davlatlardan biridir. O'rta hisobda har bir kvadrat kilometrga 337 kishi to'g'ri keladi. Tokio, Osaka, Nagoya singari yirik shaharlarda esa aholi zinchligi juda yuqori. Aholi umrining davomiyligi - millatning sog'lomligini va aholi hayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko'rsatkichdir.

Yaponiyada erkaklar o'rta hisobda 77,1 yil, ayollar esa 83,8 yil yashaydilar (ko'rsatkichlar 1997 yilda olingan). Bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Yaponlar uchun oila-asosiy hayotiy boylik. Bu joyda ajralish dunyoning boshqa rivojlangan mamklakatlari qaraganda ancha kam uchraydi. Zamonaviy yapon oilalarida, odatda ikkitadan ortiq farzand bo'lmaydi. Butun yapon oilalarning 11 foizga yaqini 3 avloddan iboratdir.

Ayollarning jamiyatdagilahvoli ham o'zgardi. Hozirgi Yaponiya - daagi ishlovchilarining 41 foizini ayollar tashkil qilib, ularning ko'pchiligi turmushga chiqqanlar (oilali). Ular o'z karyeralarini farzand tarbiyasi va oila tashvishlariga qo'shib olib boradilar.

Yaponiya konstitutsiyasi fuqarolarga din erkinligini kafolatlaydi. Umuman

YAPONIYAGA

daryo va ko'llar alohida bir go'zallik va manzara baxsh etadi.

Lekin bu orollardagi hayotni osoyishta va rohatli deb bo'lmaydi. Bir yil davomida bu yerdarga 1700 mm. gacha yog'ingarchilik yog'adiki, bu ko'rsatkich yomg'irli Buyuk Britaniyaga qaraganda ancha ko'pdir. Bu bilan birga tayfun hamda tropik yomg'irlarni, tez-tez yuz berib turadigan zilzilalarni hisobga olish lozim. Faqatgina yapon xalqining hayratlanarli matonati, mehnatsevarligi bois, nafaqat mamlakatning tabiat injqliklariga bardosh berishga, balki uning gullab-yashnashiga olib kelmoqda.

DAVLAT TUZUMI

VA

KONSTITUTSIYA

Yaponiya - demokratik tuzum boshqaruvidagi

tarmog'i hisoblanadi. Uning ko'pgina a'zolari - davlat boshqaruv idoralarining boshliqlaridir.

Mamlakatda hokimiyatning uchinchi tarmog'i sud hisoblanadi. Oliy sud tarkibiga 15 mustaqil sudya kiradi. Oliy sudning qarori qat'iy hisoblanadi. Yaponiya imperatori - davlat va millat birligining ramzidir. Imperator faqat davlat ishlariga va Konstitutsiyani mustahkamlashga doir farmonlarni tuzadi, hukumatga esa o'z hukmini o'tkaza olmaydi.

Yaponianing hozirgi imperatori Akixito 1989 yilda taxtga o'tirgan. Uning rafiqasi Mitiko xonimdir. Ularning uch nafar farzandlari bor. Imperator oilasi Yaponiya poytaxti Tokioda Imperator saroyida yashaydi.

yaponlar o'zlarini unchalik dindor xalq hisoblamasalar da, ular asosan ikkita dinga: sintoizm va budda diniga e'tiqod qiladilar.

IQTISOD

Zamonaviy Yaponiya - dunyodagi eng yirik kapital eksport qiluvchi va ikkinchi sanoat davlatidir. U mahsulot eksport qilish bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Yaponiya iqtisodi ishlab chiqarishga asoslanadi. Yapon avtomobilari, maishiy texnikasi, elektron asboblari va aloqa vositalarining yuqori sifatliligini butun dunyo biladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari, moliya xizmat ko'rsatish kabi ishlab chiqaruvchi bo'lmagan tarmoq turlari ham jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Dunyodagi 500 ta eng yirik milliy transport kompaniyalarining 141tasi Yaponianiki. Jahonda mahsulotni sotish hajmi bo'yicha dastlabki uch o'rinni yapon kompaniyalari egallaydi.

Bunday ulkan muvaffaqiyatga erishishda iqtisodiy sabablar bilan bir qatorda yaponlarning mehnatsevarligi va intizomi, tirishqoqligi, batartibligi va matonati, nafaqat o'zları, balki chet ellik sheriklari bilan ishni aniq va puxta tashkil qila olishlari ham katta xissa bo'lib qo'shildi.

FAN VA TEXNIKA

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi...

MADANIYAT

Yapon madaniyati o'zining qadimiyligi va betakrorligi bilan nafaqat umumjahon madaniyati asnosida, balki sharqiy madaniyat

durdonalaridan ham ajralib turadi. U X-XI asrlardan boshlab tinimsiz rivojlanib keladi. XVII asrdan to XIX asr o'rtalarigacha Yaponiya deyarli barcha chet davlatlar uchun yopiq edi (aloqalar faqat Niderlandiya va Xitoy bilan olib borilgan). Bu davr Yaponiya uchun o'ziga xos milliy ijodiy rivojlanish davri bo'ldi. Asrlar o'tib, dunyoga Yaponianing boy madaniyati kirib keldi va Yevropaning rassomlik san'ati, teatri va adabiyoti rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyot

Ko'plarning fikriga qaraganda Xitoy iyerogliflari Yaponiyaga taxminan VI asrda kirib kelgan va yapon

adabiyoti durdonalari sarasiga kiradi.

Teatr

Ko'p asrlik urf-odatlarning tarqatuvchisi bo'lgan Yaponianing sahna san'ati ham keng qiziqish uyg'otadi. Eng qadimiy hisoblangan No teatri juda oddiy sahna bezaklariga ega bo'lgan, aktyorlar o'tgan asrlar kostyumlari va niqoblarida rol o'ynashadi, hodisalar sekin va bir maromda davom etadi. Bu teatrning aksi bo'lgan Kabuki teatri esa xatti-harakatlarning tezligi va sahna asarlarining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Rassomlik

Yaponiya rassomchiligi husnixat san'ati bilan bog'liq

Utagava Xirosige va boshqalar ijod qilishgan.

Me'morchilik

Yaponianing qadimgi poytaxtlari Nara va Kioto ajoyib me'moriy yodgorliklarga juda boy.

Xoryudzi ibodatxonasi - Yaponiyadagi eng qadimiy yog'och imorat bo'lib, hozirgacha me'moriy shakllarining mukammaligi bilan hammani hayratga soladi.

Kiotodagi Ryoandzi toshlar bog'inining dong'i esa butun dunyoga mashhurdir. Kiotodagi «oltin» va «kumush» ibodatxonalar - Kinkakudzi va Ginkakudzi ham mashhurlikda boshqalardan qolishmaydi.

Kino

Butun dunyoga tanqli yapon rejissyorlari Akira Kurosava, Yasuziro Odzu, Kendzi Midzosuti va boshqalarning filmlari mashhurdir. So'nggi yillarda yapon filmlari Kannlarda, Venetsiyada, Monrealda bo'lib o'tadigan xalqaro kinofestivallarda yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Yapon madaniyatining boshqa turlari - gullarni aranjirovka qilish san'ati - ikebana, choy tayyorlash marosimi, origami va yapon oshxonasi - bularning barchasi Yaponiyadan tashqarida, chet ellarda ham shuhrat qozongan. Yaponcha kurashlar: dzyudo, aykido, karate, sumo, kendoning muxlislari esa butun dunyoning hamma chekkasida mavjud.

Muharrama

MIRZAKARIM qizi tayyorladi.

(Yaponianing O'zbekistondagi elchixonasi taqdim etgan materiallari asosida)

BIR NIGOH

yozuviga asos solgan. Ammo keyinchalik yozuvning haqiqiy milliy sistemalari - «xiragana» va «katakana» alifbolari yaratilgan. Bu esa yapon adabiyotining rivojlanishiga juda katta xissa qo'shgan.

Yapon klassik adabiyotining namunalari - Murasaki Sikibuning «Shahzoda Gendzi haqida qissa»si, Sey Syonagonning «Yostiq tagidagi daftar»i jahon

ravishda rivojlangan. Bu yo'nalishdagi eng yirik rassomlar orasida Sessyuning nomini aytish mumkin. Qadimiy sharqiy rassomlik san'ati Yaponiyada yog'ochdagи naqshda o'z ifodasini topgan bo'lib, xususan ukiyo janrida bir qancha mashhur rassomlar - Sudzuki Xarunobu, Kitagava Utamaro, Katsusika Xokusay,



Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir

Shahrisabzlik bolalar uchun qadrdon bo'lib qolgan shahar o'quvchilar saroyiga kiraverishda ana shunday shiorga ko'zingiz tushadi. Darhaqiqat, bu maskandan juda ko'plab iqtidorli yoshlari yetishib chiqqan. Birlari ganchkor, birlari rassom, yana birlari tikuvchi, kashtado'z, kulol. Husrov Dehlaviy, Mirzo Bedil kabi daholarning zuvalasi olingan bu yurt farzandlari orasida adabiyot, san'at va musiqaga ixlosmandlari talaygina. Respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrlar o'rnlarni egallab kelishayotgani ham bejiz emas.

Saroyda 25 ta
to'garak
faoliyat
ko'rsatadi. Ularga 1600 dan ziyod o'quvchilar a'zo bo'lishgan. Ularga kasb-hunar o'rgatish, bilim berish va tarbiyalash «Milliy dastur» va «Ta'lim to'g'risidagi qonun» talablari asosida tashkil etilganligi muvaffaqiyatlarga keng yo'l ochib bermoqda.

Men ham Ne'mat Arslonov rahbarlik qilayotgan «Yosh qalamkash» to'garagiga a'zo bo'lib, ustozimdan saboq oldim, adabiyotga, badiiy ijodga, jurnalistikaga yana ham ishtyoqim ortdi. To'garak mashg'ulotlaridan keyin ketishga oshiqmasdik. Ustozimizning «Oldinda yana bir tun bor», «Ayol suvratiga chizgilar» kabi hikoyalar to'plamlarini o'qib, muhokama qilardik. Ammo ustozning «Sharq yulduzi» jurnalida bosilgan «Adam vodiysi» hamda «Mavhumot» romanlariga hali tishimiz o'tmasdi.

Saroy direktori Adolat opa Isoqova mashg'ulotlarga tez-tez kirib turar va har safar: «Bolalar, ko'proq bilim olib qoling. Ne'mat aka, Maqsud Hamroyev, Dilbar Egamberdiyeva... bular butun boshli xazina», der va «qayerda ko'rgansiz shuncha romanlari bosilgan yozuvchining to'garakda mashg'ulot o'tganini» deb g'ururlangancha chiqib ketardilar.

Xalq maorifi a'lochisi, fidoyi murabbiy Adolat Isoqovaning o'zi ham jonbozlikda hech kimdan qolishmaydi. Saroyning gullab-yashnashi, dovrug' taratishi uchun ko'p mehnat qildi. Uning sa'y harakati bilan 1985 yilda saroyimiz yangi, zamonaviy binoga ko'chib o'tdi, to'garaklar soni ko'paytirildi, malakali va iqtidorli murabbiylar ishga jalb etildi. Shahardagi konserva hissadorlik jamiyati, Kitob bolalar uyi, Shahrisabz qishloq xo'jalik kolleji va boshqa muassasalar bilan aloqa o'rnatildi. Uchrashuvlar, kechalar, turli bellashuvlar, sayohatlarga

«Hunar o'rganamiz, ilm olamiz,
Ijod olamida dovrug' solamiz».

N.Arslon.

«Mangulik da'vati», «Gullar hidin qo'msaydi ko'ngil», «Oq nastarin», «Sog'inch», «Armon gullari», «Sirli so'qmoqlar» kabi she'riy to'plamlar, almanaxlar, qissalar tayyorlab berildi. Bu kitoblarning barchasi bosmadan chiqib, o'z o'quvchilarini topdi.


Saroyimizning o'z ichki matbuoti ham diqqatga sazovor. Bu yerda «Sirli

halqacha-
1 a r »,
«Oltin
qaychi», «Kenagasbegim liboslari» kabi 27 turdag'i devoriy gazeta va doimiy nashrlar chiqib turadi. Har yili devoriy gazetalar ko'rikli o'tkazilib, g'oliblarga sovrinlar beriladi.

Shu kunlarda Shahri Keshning 2700 yilligiga qizg'in hozirlik ko'rilyapti. Saroy jamoasi ham ana shu tashvish bilan yashamoqda. Bino qayta ta'mirlanmoqda, mashg'ulot xonalari yangidan jihozlanyapti. Eng muhim, erishilgan yutuqlarni mustahkamlash va yangi cho'qqlarni zabt etish. «Milliy dastur» talablarini to'la amalga

oshirish yo'lida samarali mehnat qilmoqdalar. Ular sobiq direktorlari marhum Adolat Isoqova nomidagi muzeys tashkil etish, to'g'rirog'i, Adolat opa o'z mablag'i hisobiga bunyod etgan muzeysiga uning nomini berish va muzeys faoliyatini kuchaytirish, «Muzey faollari» to'garagini qaytadan jondantirish borasida tinimsiz harakat qilyaptilar. Shahrisabzning qutlug' to'yni ana shunday tuhfalar bilan kutib olish niyatidalar. Qolaversa, biz ham saroyda olgan bilimlarimiz, a'lo baholarimizni shahrimiz to'yiga to'yna qilmoqchimiz.

*Madina PARDAYEVA,
Shahrisabz shahar o'quvchilar
saroyi qoshidagi «Yosh
qalamkashlar» to'garagi a'zosi.*



Sharofat Ashurova kabi yozuvchi-shoirlar bilan uchrashiganmiz. Mashhur rassom Ro'zi Choriyev sovg'a qilgan «Oqsaroy» surati saroydagi rassomchilik to'garagi xonasini bezab turibdi. Saroy o'quvchilarining rassomchilik bo'yicha Respublika ko'rik-tanlovlari faxrlar o'rnlarni egallab kelayotgani, chet ellarda o'tkazilayotgan tanlovlarda ham o'z ijodlari bilan ishtirot etayotgani ana shu uchrashuvlarning hosilasi bo'lsa ajabmas.

Bundan 20 yillar oldin Maqsud Hamroyev tashkil etgan «Yosh qalamkash» to'garagi bolalarga jurnalistika va badiiy ijod sirlarini o'rgatibgina qolmay, noshirlik ishlariga ham bosh qo'sha boshladi va buning natijasida «Nasaf» nashriyotiga

Soliqlar haqida nimalarni bilasiz?

Markaziy Osiyoda bir asrdan ko'proq davrda hukmronlik qilgan mo'g'ullar sulolasi Barlos qabilasidan chiqqan Amir Temur boshchiligidan shakllangan zarbdor qo'shin tomonidan tor-mor qilinib, Movoraunnahrda Temur davlati barpo etildi. Keyinchalik Kashmirdan O'rtayer dengizigacha, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar jug'rofiy kenglikda Temur sultanati vujudga keldi. Temur tomonidan istilo qilingan yerlarni, shaharlarni obodonlashtirish, ilm-fan, madaniyat va ayniqsa, sug'orish inshootlarini qurish va savdo-sotiqni rivojlantirish ishlari alohida e'tibor qaratilgan. Albatta, bunday tadbirlarni amalga oshirish Temur sultanatining xazinasiga bog'liq edi. Tarixan ma'lumki, davlat xazinasining birdan-bir manbai soliqlar bo'lgan. Temur hukmronlik qilgan Movoraunnahrdagi viloyatlarda, Arab, Kavkazorti mamlakatlarida, Hindistonda aynan Amir Temur tomonidan joriy etilgan soliq tizimiga amal qilingan. Amir Temur o'z sultanatiga moliya va soliq tizimini joriy etishda nafaqat o'zining «Tuzuklar» deb nomlangan ham siyosiy, ham huquqiy vasiyatnomasida ko'rsatilgan yo'riqlardan, balki istilo qilingan mamlakatlarning soliqqa tortish tartib-qoidalardan ham foydalangan. Uning asosiy prinsiplari quyidagicha ta'riflangan: -«Soliqlarni yig'ishda xalqni soliqlar bilan ezib qo'yishdan yoki viloyatlarni xonavayron qilishdan ehtiyoj bo'lish zarur, zero, xalqning xonavayron bo'lishi davlat xazinasining qashshoqlashishiga olib keladi. Xazinaning nochorligi oqibatida harbiy kuchlar parokanda bo'lib, bu esa o'z navbatida hokimiyatni zaiflashtiradi». Ta'kidlash joizki, soliq qonunchiligiga oid adabiyotlarda soliqlarning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatini Temur «Tuzuklari»da

ta'riflaganidek aniq tafsif deyarli uchramaydi.

Amir Temur sultanatining moliya va soliq tizimini shakllantirishda xalqning to'lovga qobilligini inobatga olishni ustuvor hisoblagan.

Temur davrida yer solig'i, jon solig'i va uloq solig'i asosiy soliqlar vazifasini bajargan. Bundan tashqari, favqulodda yig'iladigan «avarizot» soliqlari ham amalda bo'lgan. Yer egalarini soliqqa tortishda yerning unum dorligi asosiy

parvarish qilib, hosil olishga yaroqli holga keltirgan dehqon birinchi yili soliqlardan ozod etilgan, ikkinchi yili o'zixtiyoriga muvofiq insof sari soliq to'lagan. Uchinchi yildan boshlab umumiy tartibda soliqqa tortilgan.

Lekin Temur sultanatiga qarashli hamma joylarda soliqlarni yig'ishda adolat mezonini ustuvor bo'lmagan ayrim viloyatlarda rasmiy soliqlardan tashqari joylardagi hokimliklar tomonidan o'zboshimchalik bilan

belgilangan soliqlar va yig'imlar

ham mavjud bo'lgan. Yer solig'iga o'xshash qo'shimcha yig'iladigan «Moli jihot», oziq-ovqatlarini rekvizitsiya qilishda qo'llaniladigan «Tagor» natura solig'i sultanat saroylarini qarab turish uchun yig'iladigan «Ixrojot», savdogarlardan chetdan mol olib kelganligi uchun undiriladigan bosh to'lovlar, «Sari shumar» shaklidagi maxsus jon solig'i har bir uydan olinadigan «Xona shumor» yig'imi, elchi amaldorlar va choparlarni bepul qabul qilish, ayrim hollarda ularga ziyofatlar berish uchun

«Qo'nalg'a» yig'imi, yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun ishlatiladigan «Peshkak» kabi turli-tuman soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'ilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Temur davridagi soliqlar yig'ish tizimi qanchalik adolatli bo'lishini ta'minlashiga qaramasdan sultanatning ayrim mamlakatlarida soliq yuki ma'lum toifadagi aholi turmushini og'irlashtirgan. Bunday holatlar soliqqa tortishning tarixan shakllangan tizimlari istilo qilingandan keyin saqlab qolning mamlakatlarda sodir bo'lgan.

*(Davomi bor.)
Sharofiddin RASULOV,
Toshpo'lat MIRZAYEV.*

TEMUR SALTANATIDA JORIY ETILGAN SOLIQ TIZIMI



mezon qilib olingan.

Masalan, suv bilan yetarli darajada ta'minlangan yerlardan olingan daromadlarning uchdan bir qismi soliq sifatida olingan. «Lalminor», ya'ni faqat yomg'ir suvi bilan hosil yetishtiriladigan, suv bilan hosil yetishtiriladigan yerlar esa hosilning chorak miqdori darajasida soliqqa tortilgan.

Temur davridagi soliqqa tortish tizimining adolatlilik tamoyillaridan biri yana shu ediki, sultanatni rivojlantirish va mustahkamlanishiga qaratilgan tadbirlar soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirilgan. Masalan, bo'z yerga ishlov bergen va uning meliorativ holatini yaxshilagan, bo'sh yerlarga ko'chatlar, ekin yoki qarovsiz yerlarni



Yosh bolalar odatda o'yin qaroq, sho'x-shodon, sergapgina bo'lishadi. Ammo sizlarga tanishtirmoqchi bo'lqanim butunlay boshqacha, o'ta kamgap, og'ir-bosiq qizcha. Men faqat uning ismi Munojot Yo'ldosheva ekanligini, Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi


DADAS QIZNING QIZI

16 -

o'rta
maktab-
ning 4-
sinfida
o'qishini,
baholari
a'i o
ekanligini bildim, xolos. Uni

qanday gapirtirishni bila
olmay, qaysi fanlarni yaxshi
ko'rishini so'radim. Shunda
mo'jiza ro'y berdi. Haligi
kamgap qizning «gap qopi
ochilib ketdi». Rasm darsini
judayam yaxshi ko'rishini,
tabiat manzaralaridan, ko'rgan
multfilmlaridan ilhomlanib, rasmlar
chizishini so'zlay ketdi. «Mana qarang,
bular chizgan suratlarim. Sizga
yoqdimi?» deb so'radi bir dasta
rasmlarni ko'rsatib. Rasmlarini tomosha
qilib, uning o'ta sinchkov, kuzatuvchan
qiz ekanligini, tabiatni, jonivorlarni
yaxshi ko'rishini payqash qiyin emasdi.

*-Munojot, rasm chizishga ancha
qo'ling kelishib qolibdi. Surat*



ham, dadasing
qizi-da...

Munojot yana
qo'g'irchoqlariga
hech kimnikiga
o'xshamaydigan
kiyimchalar ham
tikib berarkan.

*-Katta bo'lganiningda yo rassom, yo
tikuvchi bo'lsang kerak-a?-so'radim
qizchadan.*



xayrashdim.

Sayyora HAMDOVA.

Bekatda ishdan qaytish vaqt bo'lani uchunmi, odamlar
tirband edi. Shu payt oldimga yoshi anchaga borib qolgan bir
onaxon kelib, «qizim,
kechirasiz, avtobuslar
to'xtaydigan joy shu
yermi?» - deb so'radi. Mendan, «ha» - degan javobni olgach,

nariroqqa borib kimnidir kuta boshladi. Uning chehrasi ma'yus,
ko'zları g'amgin edi. Shu payt uzoqdan bir ayol onaxon tomon
vajohat bilan yurib keldi-da, unga o'shqira ketdi. «Qayerlarda
yuribsan, qidirmagan joyim qolmadi-ku, sen kampir meni
tiriklayin go'rga tiqasan. Hali uyga boraylik, sen bilan
boshqacha gaplashaman. Ikkinchisi ko'chaga o'ylab chiqadigan
bo'lasan» - deb rosa baqirdi. Atrofdagi odamlardan hijolat
qilgan onaxon, sekinroq qizim, hamma bizga qarayapti, deya
qizini tinchlantirishga harakat qildi, ammo iloji bo'lmadi.
«Qarashsa menga nima, odamlar bilan nima ishim bor. Avval



Ko'nsur

*chizishni senga kim
o'rgatadi?-deb so'radim.*

-Dadam o'rgatadilar...

Uning aytishicha, dadasi
Muhibbin aka usta ekanlar. O'zları
yaxshigina musavvir bo'lqlanları
uchun ham qizidagi rasm chizishga

b o ' l g a n
i s h t i y o q n i
p a y q a b , u
b i l a n j i d d i y
s h u g ' u l -
l a n i s h g a
q a r o r
q i l i b d i l a r .
M i n g q i l s a

-Yo'q, o'qituvchi bo'lmoqchiman,-
deya qat'iyat bilan javob berdi u.
Shuning uchun ham singlim Saodatga
«dars berib», tajribamni oshirib
boryapman-da...

Mehnatdan cho'chimaydigan va
orzuga yetishish yo'lida sobit qadam
bo'lqan odamga omad kulib boqishi
tayin. Yosh bo'lsa-da, aniq maqsadlari
yo'lida izlanayotgan Munojotga ham

n i y a t t a r i
h a m r o h
b o ' l i s h i n i ,
kelgusida kim
bo'lsa ham, o'z
k a s b i n i g
u s t a s i
b o ' l i s h i g a niyat
b i l d i r i b ,

Xulosa chiqarish sizdan
sen bilan bir kun yashab ko'rishsin, keyin menga rahmat
aytishadi» - deb kampirni
siltaladi.

Bu holatni ko'rib
onaxonga juda achindim. Uning xo'rangan dili vayron bo'ldi.
Qalbi jarohatlandi...

Yurtboshimiz bu yilni «Qariyalarni qadrlash» yili deb e'lom
qildilar. Shu sababli yurtimizda qariyalarga bo'lgan e'tibor
yanada kuchaydi. Ommaviy axborot vositalarida ham
muntazam ravishda ota-onalarimizga, buva-buvijonlarimizga
mehr-oqibatli, muruvvatli bo'lishimiz, ularni avaylab-
asrashimiz haqida takror va takror ta'kidlanyapti-ku. Qolaversa,
bu dunyon qaytar dunyo, deyishadi. Bugun o'z onasini
xo'rangan ayolning ertasidan, farzandlaridan umidi bormikin?..

Shahlo MUTALOVA.



Mustaqillik bayramidagi o'ylar

Avval va'da bergenimdek, buvam-Umarbek Abdurahmonov Yunus o'g'li haqida buvimdan ko'p narsalarni so'rab bilib oldim. Buvam ham «qulog» qilingan ekanlar. Ularning Eski shaharda joylashgan Xastimon mahallasidagi 30 tanob

yozishgan. Lekin ularning arizalari ijobjiy hal qilinmagan.

Buvimning aytishlaricha, o'sha paytda hech kim sho'ro hukumatiga qarshi mustaqil fikr bildira olmagan, o'z fikrini ochiqdan- ochiq aytgan vatanparvar insonlar taqdiri esa salbiy

toptalgan qadriyatlarimiz, urfatlarimiz, qoralangan millatparvar, millatsevar insonlarimiz oqlandi.

Yaqinda yurtimizdan olis Ukrainaga «qulog» qilingan Anatoliy Ortiq o'g'li Ubaydullayevlar oilasiga xat yozdim. Mustabid tuzum solgan parokandalik,

BUYVIMMING DEGANLARI

yerlari hamda Yakkasaroy tumanida joylashgan Damariq mahallasidagi ko'nchilik qiladigan korxonalar sho'rolar ixtiyoriga olingan ekan. O'zlar esa saylov huquqidan mahrum etilibdilar.

Buvam 1928-1930 yillarda Sibirga surgun qilingan bo'lib, 1935 yilda «qulog»likdan ozod etilib, o'z yurtlariga qaytishga muvaffaq bo'libdilar.

Biroq, qanchadan-qancha vatanparvar insonlar ochlik, kasallik, sillasizlikdan begona yurtlarda nobud bo'lishibdi.

Sho'ro vakillari badarg'a etilganlarni O'zbekistonning cho'l-dasht tumanlariga, Shimoliy Kavkaz, Qozog'iston, Ukrainianing ayrim tumanlariga yoki Sibir, Magadan deb atalgan lagerlarga jo'natgan ekan.

Ma'lumki, har bir dehqon oilasini boqish uchun yer olib ishlar edi. U agar majburiyatini bajarmasa, shartnomada belgilangan paxtani topshirmasa, paxtaning qarzini g'allaga qo'shib to'lar ekanlar. Lekin juda ko'p dehqonlar bu to'lovlarni to'lay olmaganlar. Natijada sho'ro vakillari ularning g'allasini zo'ravonlik bilan tortib olishgan. Dehqonlarimiz bundan norozi bo'lib, O'zbekiston SSR Xalq Komissari Soveti va Markaziy Ijroiya Komiteti qoshida ochilgan «qulog»larning arizalarini tekshiradigan bo'limiga ariza

hal etilgan ekan.

Bundan tashqari, badarg'a etilganlar o'zlar tang ahvolda bo'lishlariga qaramay, ikkinchi jahon urushiga yuborilibdi. Urushdan keyin ham «qulog»larning hayoti yaxshilanmabdi. G'alabaga munosib hissa qo'shganligiga qaramasdan, «chet el razvedkasi josusi» sifatida yashirinchcha otib tashlanganlar...

og'ir taqdirlar haqida gapirib o'tib, Mustaqilligimizning azizligini, olamdan o'tgan yurtdoshlarimizning orzu-niyatlari ro'yobga chiqqanini suyunib yozdim. Ularning barini Toshkentga, o'z ota-bobolari yurtiga kelishlarini hamda maktabimizga tashrif buyurishlarini iltimos qildim. Ayni kunda ulardan sabrsizlik bilan javob maktubini kutayapman.

Izlanishlarim yakunida o'zimcha xulosa qildim. Mustaqilligimizni mustahkamlash uchun nima qilishimiz kerak? Avvalo uni e'zozlashimiz, bir-birimizga mehr-oqibatli bo'lishimiz darkor. Mahalladami, maktabdamasi, qayerda bo'lmaylik iymonli bo'laylik. Yaxshilik urug'ini sochaylik. Hayot qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizni va undagi qonunlarimizni puxta o'rganaylik. O'z haquqini bilgan inson hech yerda qoqilmaydi.

Bu saodatli kunlarimizning qadriga yetishimiz lozim. Chunki biz bobolar orzu qilgan, ularning qoni, joni evaziga barpo bo'lgan mustaqil yurda yashayapmiz.

Vatanimiz hozirda rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy olgan. Uning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishi esa sizu bizning qo'limizda, aziz tengdoshim.

Zulkumor UMAROVA,
Toshkent shahridagi tarix faniga
ixtisoslashgan
216- maktabning 10- sinf
o'quvchisi.



Yurtimiz 1991 yilning 31 avgustida o'z Mustaqilligini e'lon qildi. Diyormizda ko'plab ibratli ishlarni amalga oshirildi. Ma'naviy, ma'rifiy va bunyodkorlik ishlari yuzasidan havas qilsa arzigulik yutuqlarga erishildi. Talaygina chet davlatlar bilan do'stona munosabatlari o'rnatildi. Ko'plab yoshlar o'z bilimlarini oshirish maqsadida chet ellarda tahsil olayapti. Bir so'z bilan aytganda, biz o'zligimizni angladik. O'zligimizni anglashimiz uchun tariximizni o'rgandik. Yurtboshimiz aytganlaridek, «O'zlikni angash - tarixni bilishdan boshlanadi».

Sho'ro hukumati tomonidan



Bundan bir necha yil muqaddam kunlarning birida men Nyu-York yaqinidagi Salamankaga yetib keldim va u yerdan boshqa poyezdga o'tmoqchi bo'ldim. Perrondagi odamlar son-sanoqsiz edi, ularning hammasi allaqachon to'lib bo'lgan kupeli vagonga joylashish ilinjida yelib-yugurardi.

Men kassir yigitdan ikki dona chipta olishning iloji bo'larmikan, deb so'raganimda, u «Iloji yo'q!» deb kassa oynasini taraq etib yopib qo'ydi.

Shundan keyin

men temir

yo'l xiz-

m a t -

chisiga

uchrab,

undan

kupeli vagonning biror burchagidan bo'lsayam joy topilmasmikan, deb so'ragandim, u gapimni cho'rt kesib: «Yo'q, hamma joy to'lib bo'lgan. Bo'ldi, boshimni ko'p qotirmang», - deb teskari burilib ketdi.

Bu menga juda og'ir botganidan hamrohimga dedim: «Manavilar mening kimligimni bilishmaydi-da, bo'lmasa menga bunday muomala qilishmasdi. Agar bilishganida...»

Ammo do'stim gapimni og'zimdan olib: «Qo'ysangiz-chi, bunaqa quruq gaplarni, - dedi u, - bordiyu ular s i z n i n g kimligingizni bilishdi ham deylik, biroq bu bilan birortayam bo'sh joy q o l m a g a n p o y e z d g a joylashishning imkon bo'lardi, deb o'ylaysizmi?»

Bunga endi toqat qilib bo'lmadi.

Men haligi xizmatchini topib,

unga o'ta xushmuomalalik bilan dedim: «Men Mark Tven bo'laman, men...»

Lekin bu gal ham u gapimni bo'lib: «Men sizga nima degandim, boshqa meni bezovta qilmang, deb aytmaganmidim?», - dedi-da, o'zini yana chetga oldi.

Men najot kutgandek atrofga alangladim va xuddi shu payt kupeli vagonning yoshgina yuk tashuvchisi mendan ko'zini uzmay qarab turganini

Mark Tven

olib chiqib, bu yerga o'rnatib beraman. Ha, ser, siz istagan narsangizni so'rashingiz mumkin, - dedi-da, ko'zdan yiroqlashdi.

Shunda men hamrohimga iljayib, dedim:

- Xo'sh, endi bunga nima deysiz? Ular mening Mark Tven ekanligimni bilishgan zahoti menga munosabatlari o'zgarib qolmadimi?

Gapimni hali tugatib ulgurmagan ham edim, yuk

(Hajviya)

sezib qoldim. U yo'l kuzatuvchisiga meni ko'rsatib nimadir deb shivirlagan edi, u mening oldimga kelib, ochiq chehra bilan so'radi:

- Sizga biror yordamim kerak emasmi, ser? Kupeli vagondan joy kerakmidi?

- Ha, ha, kerak edi, - dedim men.

- Bizda faqat oilalilar uchun bitta katta kupe qolgan, xolos, - deya gapida davom etdi u. - Hey, Tom, manavi chamadonlarni bo'sh kupega olib bor.

Shunday deb, u shlyapasini sal ko'tarib qo'ydi va biz poyezd tomon yurdik. Yuk tashuvchi yigit bizni kupega joylashtirib bo'lgach so'radi:

- Xo'sh, qalay, bu yer sizga ma'qul bo'ldimi, ser? Yana biror narsa

kerakmasmi? Agar kerak bo'lsa bemalol aytavering, hammasini to'g'rileyimiz.

- Xo'p, yaxshi. Manavi chiroq ancha tepe ekan. Mening qulayroq o'qib ketishim uchun pastroqda turadigan boshqa bir chiroq topilmasmikan?

- Nega topilmas ekan. Xuddi shunaqasi narigi kupeda. Men hoziroq uni

t a s h u v c h i

y i g i t n i n g

t i r j a y g a n

b a s h a r a s i

e sh i k o l d i d a

ko'rindi. U

k i r a s o l i b

g a p i r a

k e t d i :

- O, ser, men sizni b i r ko'rishim-dayoq tanidim, keyin buni yo'l kuzatuvchisiga shipshitdim.

- Hali shunaqa bo'lganmidi? - dedim men

unga ancha-muncha choy puli uzata turib. - Xo'sh, men o'zi kim ekanman?

- Nyu-Yorkning meri mister Mark Klellan-da, - dedi-da, shoshib kupedan chiqib ketdi.

Ingliz tilidan

Feruza NURITDINOVA

tarjimasi.



Tush payti. Ovdan charchab, qayerda dam olsam ekan, deya ayiqqa o'xshash qoyaning orqasiga o'tsam, barglari to'kilgan do'lana ning to'q, sariq-qizg'ish mevalari diqqatimni jalb qildi. «Bir cho'ntaklarimni to'ldirib, tamaddi qilib olay», - degan

SARPO KIZOG'ANI TIPRATIQKAGI
ma q s a d d a
daraxtga yaqinlashishim bilan o'ntacha kaklik «pirr» etib uchib, meni cho'chitib yubordi. Tavakkaliga olib ketma-ket uzgan o'qlarim bekor ketmadi shekilli, kakliklardan biri galasidan ajralib, pastroqdag'i yong'oqzorlar orasiga toshdek otilib tushdi.

Kaklik tushgan joy zap joy ekan. Libossiz huvillab qolgan tabiiy bog' orasida jilvalanib oqayotgan soyning suvini ko'rib tashnalikdan lablarimni yalab qo'ydim. O'sha soy bo'yidagi bog'da hordiq chiqarmoqchi bo'lib pastga tushdim. Kakligimni soy bo'yidagi maysa o'tlar orasidan topdim.

Dam olishga o'rnik yumshoq bo'lsin uchun usti namlangan hazonlarni baland yong'oq tagiga to'play boshladim. Shunda yugurib

ketyotgan barglarga ko'zim tushdi.

«Bu ne hol? Tipratikan ekan-ku!» Qo'limga olib ustidagi «to'nini» tomosha qilar ekanman, «ha, birodar, sizni qishki xonadoningizdan bezovta qilibman-da» - degan edim, koptokdek

dumaloq bo'lib olgan tipratikanning barglari orasidan ikkita nuqta ko'rindi. Munchoqdek ko'zlar menga hayron boqardi. «Kechirasiz, bilmay qolibman. Hali kunlar issiq, anavi yong'oqning tagiga o'ta qoling», - deganimcha qo'yib yubordim.

U to'xtab-to'xtab yong'oq tomon ketdi. Hazonni bir joyga to'plab yonboshlamoqchi edim, qattiq narsa borligini sezib qoldim. «Tosh uyumi ekanmi?» - deb qarasam, bir talay olma. «Qishga g'amlaganingiz ham shu yerda ekan-ku» - deb sanasam, sal kam qirqtacha. Biribiridan qolishmaydigan tog' olmasining sarasi.

Bir-ikkitasini yeb, qolganini «sizlarga quyon berib yubordi», deb qizlarimga

olib ketmoqchi bo'ldim. Hammasini ov xaltamga solib qo'yib, ovqatlandim.

Mazza qilib dam olgach, yo'lga tushdim. Soy bo'ylab ketar ekanman, o'zimni xuddi beatab ish qilgandek g'alati sezdim. Yukim og'irlashib, ov

xaltamning qayishlari yelkamni qiyib yuborayotgandek tuyuldi. «Axir, bechora tipratikan har bir olmani

i g n a s i g a
sanchib, iniga
keltirguncha
q a n c h a
m a s h a q q a t i
c h e k k a n
ekan?! Men
esa noinsoflik

qilib, hammasini olib ketyapman» degan fikrdan ko'nglim g'ash tortdi.

Ancha-muncha yo'l bosgan bo'lsam ham orqaga qaytib, boyagi joyga ov xaltamdag'i olmalarni oxistalik bilan joylar ekanman, ustini hazonlar bilan berkitib qo'ydim. Shundan keyingina ko'nglim taskin topib, yo'limda davom etdim.

G'ofur JO'RAYEV.

1. Eng mudhish xato?
 a) xatoni qaytarish;
 b) o'g'rilik;
 c) manmanlik;
 d) bo'ysunmaslik.

2. Uni ekishayotganda shunday deyishadi: g'ovak bo'lma zikh bo'l, bo'sh bo'lma qattiq bo'l.

- a) turp;
 b) karam;
 c) piyoz;
 d) sholg'om.

3. Inson tanasidagi 2% suvdan tashkil topgan a'zo?
 a) qulqoq;
 b) lab;

- c) burun;
 d) tish.

4. Avstraliya so'zining ma'nosini nima?
 a) janub;
 b) shimol;

- c) sharq;
 d) qutb.

5. Odamni odam qilgan narsa nima?
 a) go'zallik;
 b) aql yuritish;

- c) nutq;
 d) fikrlash.

6. Aristotelning fikricha og'irlikka ega bo'limgan narsa nima?
 a) suv;

- b) gaz;

- c) olov;

- d) muz.

7. Yer sharida har beshta odamning biri kim?
 a) xitoylik;

- b) yapon;

Keksa ovchi xotiralari



olib ketmoqchi bo'ldim. Hammasini ov xaltamga solib qo'yib, ovqatlandim.

Mazza qilib dam olgach, yo'lga tushdim. Soy bo'ylab ketar ekanman, o'zimni xuddi beatab ish qilgandek g'alati sezdim.



Yukim og'irlashib, ov xaltamning qayishlari yelkamni qiyib yuborayotgandek tuyuldi. «Axir, bechora tipratikan har bir olmani

i g n a s i g a
sanchib, iniga
keltirguncha
q a n c h a
m a s h a q q a t i
c h e k k a n
ekan?! Men
esa noinsoflik

qilib, hammasini olib ketyapman» degan fikrdan ko'nglim g'ash tortdi.

Ancha-muncha yo'l bosgan bo'lsam ham orqaga qaytib, boyagi joyga ov xaltamdag'i olmalarni oxistalik bilan joylar ekanman, ustini hazonlar bilan berkitib qo'ydim. Shundan keyingina ko'nglim taskin topib, yo'limda davom etdim.

G'ofur JO'RAYEV.



- c) hindu;
 d) o'zga sayyoralik.

8. Rio-de-Janeyro so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) moviy daryo;
 b) shayton daryo;
 c) yanvar daryosi;
 d) shahar ko'rki.


9. Qur'oni Karimda yozilishicha, o'g'il bola otaning belidagi quvvati, qiz bola esa...

- a) bor-yo'g'i;
 b) ko'zidagi nuri;
 c) tayanchi;
 d) oyoq-qo'li.

10. «Dengiz Kirakashlari» nomini olgan mamlakat?

- a) Norvegiya;
 b) Gollandiya;
 c) Italiya;
 d) Irlandiya.

Shodiya ABDULLAYEVA,
Toshkentdagi



QORA AJAL

Qora ajal komiga,
Kirib qolding yosh inson.
Tortar seni domiga,
Hayoting bo'lar hazon.
Umringni hazon qilma,
Uni bilib yaxshiroq.
Unga yaqinroq bo'lma.
Hayotdan bo'lib uzoq.
Ota-onang baxtli qil,
O'qib, ilm ol o'g'lon.
Umringni sen aziz bil,
Sengadir barcha imkon.
Giyohvandlik - bu vabo,
Bu yo'lga kirma aslo.
Vatanga loyiq inson
Bo'lolgin o'qib a'lo.


Durdona AVAZOVA,

Toshkentdagi 85 - mактабнинг
8 - «A» синф о'quvchisi.

ILDIZI QAYERDA?

Avvallari ichkilik asr vabosi deyilar ekan. Hozir esa stakan va tamakining yoniga shprits va oq kukun ham qo'shildi. Bu esa odamlar orasida giyohvandlarning ko'payib borayotganiga bir ishora. Bu illatning ildizi qayerga borib taqaladi? Menimcha, o i l a g a . O t a - onalarimiz farzand- l a r i g a keragidan ortiqcha pul beradilar. Ular esa bu pullarini dastlab tamaki chekishga, keyinchalik nashalardan tatib ko'rishga sarflaydilar. Qarabsizki, yoshgina bir nihol hazon bo'ladi.

Dilshod IMOMOV,
Poytaxtimizdagi
316 - mактабning 6 - «V»
синф о'quvchisi.



GIYOHVANDLIK - ASRLAR VABOSI

Sarlavhani o'qib, hayron bo'layotgandirsiz. Bejiz asr so'ziga «lar» qo'shimchasini qo'shmadik. Chunki XX asr vabosi deb e'tirof etilayotgan giyohvandlik XXI asrimizga ham kirib keldi. Uning ildizi qurib, chirib borish o'rniqa, yosharib, ildiz otib borayotgani hozirgi kunda hech kimga sir emas. Yoshlarimiz orasida ham bu ajali qotilga ruju qo'yayotganlarning oz bo'lsa-da uchrab turishi achinarli holdir.

Bunday holatlar aqli butun, teran fikrlaydigan, jamiyat, qolaversa, tengdoshlari taqdirini o'ziniki deb biladigan yoshlarmizni befarg qoldirmasligi tayin. «Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'uloti ham aynan ana shu mavzuga bag'ishlandi. To'garak a'zolari bu boradagi fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar.

Respublikadagi tengdoshlarini giyohvandlikka qarshi kurashga da'vat etdilar.

O'tgan yozgi ta'tilni Amir Temur oromgohida o'tkazgandim. U yerda T. ismli bir qiz bilan yaqin dugona bo'lib qoldik. T. juda sho'x, quvnoq qiz edi. Lekin ba'zan xomush tortib, allaqanda y x a y o l l a r g a cho'mib qolardi. Bir kuni u menga dilidagi bor gaplarini to'kib soldi:

«Oilada 5 farzandning to'ng'ichi bo'lganim uchun oilaning hamma yumushlari mening zimmamda edi. Ba'zida o'g'il bolalar qilishi kerak bo'lgan yumushlarni ham bajarishga majbur bo'lardim. Uy yumushlaridan ortgandagina maktabga borardim. Ota-onam yuqori lavozimlarda ishlashardi. Negadir onam meni unchalik yoqtirmsadilar...

Bir kuni ota-onamning suhabatlarini eshitib qoldim va men ona deb yurgan inson aslida menga o'gay ekanligini bilib qoldim. Tuni bilan uxmlamay, yig'lab chiqdim. Ertalab do'stimni ko'rib kelishni bahona qilib, uydan chiqib ketdim va uyga qaytmadim. Uch kun och yurdim. Oxiri chiday olmay otam tug'ilgan kunimga sovg'a qilgan uzukni sotdim. Shu-shu ko'cha qizi bo'lib qoldim. Uch-to'rtta o'zimga o'xshagan «do'stlar» orttirdim. Bora-bora narkotik muddalarga ruju qo'ya boshladim. Bu yo'lidan qaytishga esa irodam kuchsizlik qildi...

Bir kuni diskotekaga borish uchun mashina to'xtatdik. Kayfimiz ancha oshib qolgandi. Haydovchi bir menga, bir do'starimga qaradi-da:

-Qayoqqa borasizlar, -deb so'radi. Manzilni aytdik. Ammo haydovchi boshqa yo'lidan borardi. Atrofga yaxshilab razm solsam, mening qadrondon ko'cham. Yaltetib haydovchiga q a r a d i m . Ko'zlarimga ishonmasdim. Axir... axir bu mening dadam-ku deb, bag'rilariga o'zimni otdim.

Dadam bizni uyg'a olib bordilar. Ertasi kuni bizni og'uning xumori tutdi. Dadam hammamizni shifokor huzuriga olib bordilar. Xullas, shifokorlar yordamida bu dariddan forig' bo'ldim. Hozir butunlay sog'ayib ketganman. Har yili oromgochlarga, tabiat qo'yniga dam olishga chiqaman...

Uning hikoyasini tinglab, o'yga tolasan kishi. Dunyoda bu og'u yetib bormagan joy qolmagan bo'lsa kerak. Uning girdobidan esa hamma ham omon chiqavermaydi. Bu yo'lga kirib qolganlarga aytar so'zlarimni she'r bilan ifodalamoqchiman:

*Ey, do'stim, to'xta, biroz,
Umring qilmagin xarob.
Kelajak orzularing,
Aslo aylama sarob.
Umring zarpog'onasin,
Xalos etgin gardlardan.
Xalqing ham g'ururlansin,
Sendek jasur, mardlardan.*


Nigora ESHIMOVA,
Toshkentdagi arab tiliga
ixtisoslashgan
29 - mактаб о'quvchisi.

Biz yoshlar har taraflama aqli, bilimdon, ruhan va jismonan sog'lom bo'lib yetishishimiz zarur. Hozirgi kunda juda ko'p yoshlar giyohvandlik ko'chasiga kirib ketayotganlari achinarli hol. Chunki yoshlar kelajakning ko'rarko'zidirlar. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik ta'siriga tushib qolayotganlar asosan 11-17 yoshni tashkil qilar ekan. Shu yoshdan og'uga o'rgangan insonning eng avval jigari ishdan chiqar ekan. Keyin sekin-asta qon aylanishi buzilib, asab sistemasi

Men 26-24 yoshli ikki aka-ukani bilaman. Albatta, bu yosh ayni o'qib, bilim oladigan davr hisoblanadi. Bu aka-ukalar esa boshqacha yo'lni tanlashdi. Nasha tortib ko'rishdi. Keyinchalik esa unga o'rganib qolishdi. Ota-onaning yuzi yerga qaradi. Bora-bora ular giyohvandlik moddalari savdo-sotig'i bilan ham shug'ullana boshlashdi. Bundan xabar topgan ichki ishlar

Har gal Xolida ayani ko'chada yolg'iz o'tirganlarini ko'rganimda, beixtiyor ularning boshlaridan kechgan voqealar yodimga tushadi. Yolg'izgina o'g'illari Akromjon Pedagogika oliygojni tugatish arafasida ancha o'zgarib qoldi. Sal narsaga asabiylashadigan, hech kimga qo'shilmaydigan, hammaga qo'rslik qiladigan odat chiqardi.

Keyinchalik uning giyohvand moddalarni iste'mol qilishi ma'lum bo'lib qoldi. Bu gap-so'zlardan or qilib, Xolida aya ko'chaga ham chiqmaydigan, odamlarga qo'shilmaydigan bo'lib qoldilar. Bu orada o'g'illari haqiqiy giyohvandga aylanib, oxir-oqibat oliygojni ham tashlab ketdi. Bir kuni dugonam bilan maktabdan qaytayotganimda



ishdan chiqadi, ko'rish, eshitish, hid bilish, fikr yuritish, issiq-sovuqni, qattiq-yumshoqni, shirin-bemazani sezish xususiyatlari yo'qolar ekan. Shunday ekan, biz yoshlar ko'zimizni ochaylik. Hozirgi tinch, farovon hayotimizning qadriga yetib, o'qib, bilim olib, yurtimizga foydamiz tegadigan insonlar bo'lib yetishaylik.

*Shahzoda RIZAYEVA,
«Orom» nomli bog'cha
maktabning 4 - «J» sinf o'quvchisi.*

xodimlari ularni qo'lga olishdi. Amnistiya munosabati bilan ozodlikka chiqqan aka-ukalar yana o'z «kasb»larini davom ettira boshlashdi. Oradan hech fursat o'tmay, akaning yosh umri hazon bo'ldi. Uch nafar o'g'il-qizlari ortidan bo'zlab qolishdi. Yomonlik jazosiz qolmaydi, deganlari shu bo'lsa kerak-da...

*Zilola TO'YCHIYEVA,
Qashqadaryo viloyati.*

ko'chamizdagibir to'da odamlarni ko'rib hayron bo'ldim. Bilsam, Akromjon ko'p miqdorda giyohvand modda iste'mol qilish oqibatida dunyodan ko'z yumibdi. Shundan keyin Xolida ayaning ahvoli yanada og'irlashdi. Har gal o'g'illarining yaqin do'stlarini ko'rganda ko'zlariga yosh oladilar, o'g'illarini eslab ezilsalar kerak-da...

Akromjon atigi uch oy ichida shu ahvolga tushdi. O'ylanmay tashlangan qadam uning umrini qisqartirdi. Shunday ekan, o'z hayotimiz, kelajagimiz o'z qo'limizda ekanligini aslo unutmeylik. Har tomonlama yetuk inson bo'lishga intilib yashaylik, aziz tengdoshim.

*Malohat TO'XTAYEVA,
A.Ikromov tumanidagi
116 - maktabning
8- «B» sinf o'quvchisi.*

Nasha eng yomon zahardir. Lekin boshqa zaharlardan farqli o'laroq, u bir zumda ta'sir qilmaydi, balki butun umringiz davomida o'z ta'sirini ko'rsatib, sizni tobora o'lim sari yaqinlashtirib boradi. Xush kayfiyat va yengilgina bosh aylanishi bilan boshlangan bu ishning oxiri — o'limdir.

QUTTRALIK

Oldingizda ikki yo'l turibdi. Qay birini tanlashingiz — o'zingizga bog'liq. Biri shunday keng va yorug' yo'lki, u baxt, omad, sabr, iymon va mehr-muhabbat kabi ko'chalardan iborat. Bu yo'lning oxiri kamoldir. Ikkinci yo'l esa, shunday chirkin, qorong'u va notejis yo'lki, unda ming bora qoqilib, ming bora yiqilasiz. Bu yo'l kashandalik, giyohvandlik, ikkiyuzlamachilik, o'g'rilik, ig'vogarlik va johillik yo'lidir. Bu ko'chaning oxiri o'pqondir. U sizni tobora o'z domiga torta boradi va siz bu o'pqondan hech qachon qutula olmaysiz. Shuning uchun o'z hayot yo'lingizni tanlashda ehtiyoj bo'ling, aziz tengdoshim!

*Kamola UBAYEVA,
Poytaxtimizdagi
249 - maktab o'quvchisi.*



*Ushbu suratni Toshkent shahar,
A.Ikromov tumanidagi 312 -
maktabning 7-«A» sinf
o'quvchisi
Hilola EGAMBERDIYEVA
chizgan.*



2 sentabr

TONG YULDUZI

2002

B	I	D	K	U	B	O	C	H	I	N	B	I	B	A	L	
O	G	I	L	Sh	O	G	I	R	O	O	G	D	N	A		
B	D	L	I	G	O	N	Z	I	B	Sh	I	B	I	B		
O	o	o	o	o	B	O	B	G	O	G	O	T	H	E	G	O
G	I	A	M	I	H	A	M	I	L	U	B	O	O	N		
O	Z	R	I	R	B	I	Z	R	U	G	K	G	D	Y		
D	A	Sh	O	H	O	G	O	D	A	B	E	I	M	A		

Ushbu katakchalarda Amir Temur barpo ettirgan bog'larning nomlari yashiringan.
Ularni topishga urinib ko'ring.

*Tuzuvchi: Go'zalxon QOSIMJONOVA,
A.Ikromov tumanidagi
116 - matabning 8 - «B» sinfo 'quychisi.*

QOROVUL NEGA ISHTDAN HAYDALO!

Podsho a'yonlari bilan tog'safariga otlanayotgan edi. Shunda xazinasidagi qorovul kelib:
-Ey shohim, toqqa bormang, -dedi.
-Nima uchun?
-Kech a kechqurun bir tush ko'rdim. Tushimda tog'dan toshlar yog'ilib, sizning ustingizga tusha boshlabdi.
Podsho qorovulning gapini tekshirish maqsadida toqqa bir



navkarini yuboribdi.
Lekin navkar qaytib kelmabdi. Shunda podsho:

-Sening gaping to'g'riga o'xshaydi,
-deb unga bir xumchada tilla beribdi va saroydan hayab yuboribdi.

Savol: Podsho nima uchun qorovulni hayab yuborgan?

(Javob: Xazinani oq, riplama)

Dilshod G'OFUROV.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKİSTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKİSTON
RESPUBLİKASI XALQ
TA'LİMİ VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR İJTIMOY
HARAKATI,
«SOĞLOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZİMOVA
TAHRİR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZİLOV,

Oynisa
MUSURMONOVA,

Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinnbosari),

Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

“Sharq” nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nusxada ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
“Buyuk Turon” ko'chasi,
41.

Buyurtma № Г-861
Gazetani
Ma'suda IRISNAZAROVA
sahifalandi.

Navbatchi: Muhammara
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137

Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08